



## YOSHLARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI YUKSALTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA KONSEPSIYALARI

**Jumayev Sarvarbek**

O'zbekiston Milliy Universiteti,  
tayanch doktorant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7262717>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> October 2022

Accepted: 18<sup>th</sup> October 2022

Online: 29<sup>th</sup> October 2022

### KEY WORDS

*konsepsiya, fuqarolik, pozitsiya, millat, xalq, jamiyat, siyosiy xuquq, modernizatsiya, komponentlar, islohot, standart, konvensiya, konstitutsiya, ta'lim, deputat, maxalliy kengash, volontiyorlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu ilmiy maqolada fuqarolik jamiyati asoslari shakllanayotgan bir sharoitda shaxs erkinligini yanada kengaytirish ularda davlat va jamiyat hayoti, uning ravnaqini ta'minlashdagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglab etish, ko'nikmalarini hosil qilish huquqiy saviyasi va madaniyatini yuksaltirishda, davlat organlari, ta'lim muassasalarigina mas'ul bo'lib qolmay shu bilan birga jamoat tashkilotlari va boshqa nodavlat tuzilmalarini faollik darajasini ortishini ham taqozo etadi. Shu kabi fikrlar maqolada keng yoritib o'tilgan.*

Fuqarolik jamiyat asoslari shakllanayotgan respublikamizda, yoshlarimizning faolligini yuksaltirish, ularda millat, xalq va jamiyat oldidagi burch hamda mas'uliyatini yurakdan his qilish tuyg'ularini kamol toptirish hamda ularning ongu shuurida mustaxkam hayotiy pozitsiyani, e'tiqod hamda maslakni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Shuni alohida takidlab o'tish lozimki mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o'z ifodasini topadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, nodavlat notijorat

tashkilotlarining roli va ahamiyatini, ijtimoiy faolligi va faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" va "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida:

2021 — 2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilingan. Quyidagilar Konsepsiyaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

➤ fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish;

➤ fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat



tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada takomillashtirish;

➤ davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

➤ davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish;

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash.<sup>1</sup>

Faol fuqarolik pozitsiyasi aynan shunday o'zgalarga ishonib bo'lmaydigan jarayondir dastlab fuqarolik va pozitsiyaning ma'nolariga to'xtalib o'tsa. Fuqarolik – bu insonning jamiyat hayotida ongli ravishda ishtirok etishi, uning atrof-muhitga nisbatan ongli real harakatlarini aks ettiruvchi, uni amalga oshirishga qaratilgan jarayon.

Fuqaro – ma'lum bir davlatning doimiy aholisiga mansub, uning himoyasidan foydalanadigan, siyosiy va boshqa huquq va majburiyatlar majmuiga ega bo'lgan shaxs. Yoshlar ulg'aygan sari, ularning qarashlari dunyo va borliq haqiqati. Har kimning o'z pozitsiyasi, ya'ni qaysidir masala bo'yicha qarashi, fikri bo'ladi va vaqt o'tishi bilan fuqarolik o'zini-o'zi anglashi shakllanadi. Albatta fuqaroning yuzi yo'q u istalgan davlatga mansub bo'lishi undangi qonun qoidalarga shunchaki kor korona amal qilib yurishi mumkin. Ammo insoning yuragi ichki kechinmalari va xayollari doimo ona xalqi bilandir. Farzandlarimiz vatanga nisbatan fuqarolik burchini ongli ravishda chin dildan ato etishlari uchun ularda fuqarolik

pozitsiyani rivojlantirish lozim bu esa maktab davridanoq otiladigan dars soatlaridan boshlansa yanada yaxshiroq farzandlarimiz ozi yashayotgan ona vatan tarixi, urf odatlari vatandoshlari boshidan o'tgan og'ir yengil kunlardan habardor bolishi va u hozir aynan qanday jarayonda ekanligini bilishi lozim. Albatda oliy va o'rta talimdanoq ongimizga singib borgan vatan istiqboli yo'lida amalga oshirilayotgan tadbirlar xarakterlar va manaviy urf odatlar bizga faol fuqarolik pozitsiyasini his qilishimizda ko'makdosh bola oladi. Fuqarolik jamiyati asoslari shakllanayotgan bir sharoitda shaxs erkinligini yanada kengaytirish ularda davlat va jamiyat hayoti, uning ravnaqini ta'minlashdagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglab etish, ko'nikmalarini hosil qilish huquqiy saviyasi va madaniyatini yuksaltirishda, davlat organlari, ta'lim muassasalarigina mas'ul bo'lib qolmay shu bilan birga jamoat tashkilotlari va boshqa nodavlat tuzilmalarini faollik darajasini ortishini ham taqozo etadi. «Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish zarur. Bu borada o'zini- o'zi boshqaradigan idoralarning, mahallarning nufuzini va mavqini oshirish, ularga ko'proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi»<sup>2</sup>.

Faol fuqarolik pozitsiyasi uchun birinchi komponent ijtimoiy faollikdir. Uni mehnatga ongli, ijodiy munosabat sifatida belgilash mumkin va ijtimoiy faoliyat, buning natijasida shaxsning o'zini o'zi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2021 yildagi PF-6181-son. <https://lex.uz/docs/-5319756>

<sup>2</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot - pirovard maqsadimiz. 8 -jild. - Toshkent: O'zbekistan, 2000. - 333



anglashi ta'minlanadi. O'zni o'zi anglashim tugadi jamoat hayoti sinfda, maktabda, tumanda, viloyatda. Bu aksiyalar, tanlovlar, tadbirlarda ishtirok etish turli darajalar va yo'nalishlar. Bundan tashqari, faol fuqarolik pozitsiyasi, manfaatdorlikni anglatishi kerak jamoat xizmati, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, shaxsiy ahamiyatni anglash, tashkilotchilik qobiliyatining mavjudligi.

Fuqarolik so'zda emas, aniq amalda bo'lishi kerak. Fuqarolik tuyg'usi esa shaxsning "Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan madaniy jarayonlar ahloqiy qadriyatlarining o'tmish bilan kelajakni uzviy aloqadorligini ta'minlab, tarixiy merosning nodir ne'matlarini o'zgartirish asosida shakllanadi"<sup>3</sup>.

Fuqarolik madaniyati shakllangan muhitda odamlarda siyosiy hayotda ishtirok etish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bunda kishilar fuqarolik jamiyati institutlariga birlasha boshlaydilar. Fuqarolik madaniyati kuchayib borgan sari odamlar siyosiy jihatdan faollashib, partiyalarga a'zo bo'lish tendensiyasi kuchayadi. Demak, siyosiy partiyalar a'zolari soni va sifatining oshib borishi darajasi ham fuqarolik madaniyatini ko'rsatuvchi mezonlardan biridir. Fuqarolik madaniyati shaxsning jamiyatdagi faol a'zosi sifatida ma'lum haq-huquqlarga ega bo'lish bilan birga o'z zimmasidagi burch va majburiyatlarni vijdonan ado etishdir. Yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish - ularga mustaqil davlat tuzilmasining xususiyatlari, mamlakatning xalqaro maydonda tutgan o'rni, vatanparvarlik va millatlararo do'stlik tuyg'ulari, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida amalga

oshirilayotgan ijtimoiy harakatlar, mehnat an'analari, milliy istiqlool g'oyasi va mafkura asoslari haqidagi bilimlarni berish asosida ularda fuqarolik hissini zimmalaridagi burch va majburiyatlarni bajarishga nisbatan mas'uliyat, yot mafkuraviy qarashlarni anglash va unga qarshi bo'lish, ijtimoiy faollik va fidoyilik kabi sifatlarni mujassamlashtirgan yaxlit bir tarbiya jarayoni hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)** Albatta yoshlarni o'z yurtiga fidoiy qilib tarbiyalash bilan birgalikda ularga xuquqiy madaniyatni ham tushuntirib borish lozim. Oilaviy hayotda bo'ladimi, jamiyatdagi munosabatlardami, o'qish va ish faoliyatidami - barchasi Konstitutsiya va u asosida yaratilgan qonunlar bilan tartibga solinadi. Bolalikdan har bir inson ongiga singdiriladigan qoidalardagi "mumkin" yoki "mumkin emas" degan so'zlar ham shu qonunlardan kelib chiqadi. Aynan shu qoidalarni o'zlashtirish bilan shaxsda huquqiy madaniyat shakllanadi, qonunchilik haqida tushuncha paydo bo'ladi. "Mamlakatimiz davlat ta'lim standartlariga muvofiq, ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchi va talaba yoshlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'yicha dars mashg'ulotlari o'qitiladi, - deydi Samarqand viloyati xalq ta'limi boshqarmasi ijtimoiy fanlar uslubchisi" Nurali Ibrohimov. - Bu, **avvalo**, maktabgacha ta'lim muassasasida boshlanib, tarbiyalanuvchilarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqida ilk tushunchalar o'rgatiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa Birinchi Prezidentimizning 2001-yil 4-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoyishi asosida 1-4-

<sup>3</sup> Губман Б.Л. Смысл истории. Очерки современных западных концепции. - М.: Наука, 1991. - 15 с.



sinflarda “Konstitutsiya alifbosi” kursi o‘qitiladi. Shuningdek, atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, odobnoma hamda tarbiyaviy soat mashg‘ulotlarida Bosh qomusimizda belgilangan qoidalar haqida ma‘lumot beriladi.

5-7-sinflarda 17 soatlik “Konstitutsiya olamiga sayohat” kursi davomida o‘quvchilarga Konstitutsiya moddalarini “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlar, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda bir qator xalqaro konvensiyalar mazmun-mohiyati bilan birga tushuntiriladi.

O‘quvchilar yuqori sinflarga o‘tgach, ularga “Davlat va huquq asoslari”, “Konstitutsiyaviy huquq asoslari”, “Huquqshunoslik” bo‘yicha har yili 34 soatdan dars mashg‘ulotlari o‘tiladi.

Albatta o‘z huquqlari bilan birgalikda burchlarini ham biladigan, yuksak xuquqiy onga ega bo‘lgan yoshlar jamiyatimizning kuchli poydevorlaridir. Aynan shuning O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan edi.

Konsepsiya (lot. Conceptio — majmua, tizim) — 1) biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar; 2) adabiyotda — biror asarning asosiy g‘oyasi. K. badiiy asar mohiyatini, ijodkorning “meni”ni ifoda etadi. Biroq badiiy asar K.si ayrim holatlarda muallifning sub’yektiv qarashlaridan keng qamrovli bulishi mumkin. Ushbu konsepsiya yoshlarning jamiyatdagi fuqarolik pozitsiyasini yaratishda hizmat qilishi ko‘zdatutiladi<sup>4</sup>.

<sup>4</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) maqsadi mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini hamda dolzarb masalalarni hal etishda hamkorligini kuchaytirish, respublikada barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashabbuskorligi va faolligini oshirish hisoblanadi<sup>5</sup>.

2022 yildan boshlab har yili 1 dekabrga qadar tegishli «Yo‘l xaritasi» bajarilishi yakunlarini batafsil o‘rganish asosida keyingi yil uchun «Yo‘l xaritasi»ni ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish; Tegishli «yo‘l xaritalari»ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib borish.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Konsepsiyada quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

Yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish;

Ta‘limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta‘lim olishini ta‘minlash, hududlarda inklyuziv ta‘lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

Yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish;

Yoshlarni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish,

<sup>5</sup> Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi 1-bob umumiy qoidalar.



yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan «Besh muhim tashabbus»ni amalga oshirish;

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchisini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash;

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo'llab-quvvatlash va boshqalar.<sup>6</sup>

Ushbu konsepsiya uch bobdan iborat bo'lib. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar quyidagilarni tashkil etadi.

Konsepsiyada belgilangan vazifalarni bajarish orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yiladi;

Fuqarolik jamiyati institutlariga ajratilgan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ishlatish samaradorligi, shuningdek, ularning o'z mol-mulki va pul mablag'laridan foydalanishi jarayonining oshkoraligi ta'minlanadi;

Fuqarolik jamiyati ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganilib, uning rivojlanishi doimiy tahlil qilib boriladi;

Fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining axborot-ma'rifiy salohiyati va demokratik ko'nikmalari oshirib boriladi;

Qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishning barcha bosqichlarida nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki huquqiy jihatdan mustahkamlanadi;

Ommaviy axborot vositalari sohasidagi huquqiy baza takomillashtiriladi, shuningdek, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining roli oshiriladi;

Jamoatchilik nazoratini ta'sirchan amalga oshirish ishlari jadallashtiriladi;

Volontyorlik va homiylik faoliyati rivojlantiriladi.

Albatta bu kabi tadbirlarning barchasi yoshlarda vatanga nisbatan chin fidoiylik, bundan tashqari atrofidagi vatandoshlarim nisbatan xurmat tuyg'ulari bilan birga ularning shaxsiy xuquqlarini ham himoya qilish uchun amalga oshirilmoqda. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek Saxovatsiz aql ziyon keltiradi yani yoshlarimiz o'z burchlarini chin dildan istagani, qonunlar qarshisida barcha barobar ekanligini ongli his qilgani uchun ado etmog'i lozim ularga buni yanada chuqurroq yetkazish uchun maktab dars soatlaridan tashqari turli tadbirlar, davra suhbatlari, olib borish undan tashqari yangi metodlarni ham qo'llash ancha maqsadga muvofiq masalan:

➤ Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida "Mening vatanga muhabbatini" mavzusida rassomlik musobaqasi o'tkazildi nega endi rassomlik chunki bu yoshda bolalar yozishdan ko'ra ko'proq turli ranglarga boy rasmlar ishlashni yaxshi ko'radilar va bu paytda ularning fantaziyasi ham ancha kuchli bo'ladi

➤ Yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida "Mening fuqarolik pozitsiyasi haqida tushuncham" mavzusida insholar tanlovi o'tkazilsin ushbu tanlovlarda olinga olqishlar va sovg'alar ularni shu mavzu ustida yanda o'ylanishga va yanada ko'proq o'rganishga chorlaydi yani ruhlantiradi

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.12.2019 yildagi O'RQ-585-son. <https://lex.uz/docs/-4623999>



➤ Litsey va universitet talabalari esa ushbu mavzu yuzasidan ijtimoiy tarmoqlarda chellangelar o'tqazishi mumkin. Eng namunali va eng ko'p layklar yig'gan videorolik egasi shunga yarasha mukofotlantiriladi.

**Xulosa va takliflar**  
**(Conclusion/Recommendations)** Xulosa

qilib aytganda yuqorida sanalgan usullar ham yoshlarimizda xuquqiy ongni rivojlantirishda va faol fuqarolik pozitsiyasida bo'lishlariga katta yordam beradi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2021 yildagi PF-6181-son. <https://lex.uz/docs/-5319756>
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot - pirovard maqsadimiz. 8 -jild. - Toshkent: O'zbekistan, 2000. - 333
3. Губман Б.Л. Смысл истории. Очерки современных западных концепции. – М.: Наука, 1991. – 15 с.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi 1-bob umumiy qoidalar.
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.12.2019 yildagi O'RQ-585-son. <https://lex.uz/docs/-4623999>